



MO'TADILLASHISH JARAYONIDA ZIDLANISHLARNING XOSIL BO'LISH USULLARI

Usmonov Yorqinbek Muxtorjon o'g'li

Email: yorqinjon90@mail.ru Tel: +998905654741

Qo'qon davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21071538>

Annotatsiya

Ushbu maqola oppozitsiyalarni mo'tadillashish jarayoni va ularning morfologik ziddiyatlarni vujudga keltirishi, shuningdek lingvistik sathlarni kengayish sabablarini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: oppozitsiyalar, sintaktik tabiat, semantik ma'no, morfologik kategoriyalar, distributsiya xodisasi.

Аннотация

В данной статье показан процесс модерации оппозиций и причины возникновения морфологических конфликтов, а также расширения языковых уровней.

Ключевые слова: оппозиции, синтаксическая природа, смысловое значение, морфологические категории, феномен распределения.

Annotation

This article shows the process of moderation of oppositions and their causes of morphological conflicts, as well as the expansion of linguistic levels.

Key words: oppositions, syntactic nature, semantic meaning, morphological categories, distribution phenomenon.

Oppozitsiyalarni vujudga kelishida kelishik paradigma a'zolari ziddiyatining neytrallashuvi va kelishik ma'nolari kelishik shaklidagi so'zning boshqa so'zlar bilan bog'lanishi asosida shakllanadi¹. O'zbek tilida oltita kelishik shakllari bo'lib, matn tarkibida ular o'zaro almashib qo'llanishlari mumkin.

Professor Sh.Shaxabitdinova kelishik kategoriyasi morfologik kategoriyalar orasida sintaktik tabiatining ustunligi bilan farqlanishi, kelishiklarning semantik xususiyati borasida yuzaga kelgan qarashlarning xilma-xil ekanligini ta'kidlaydi va shunday deydi: "...Ushbu qarashlarni ikki katta guruhga jamlash mumkin: 1. Kelishiklar o'z semantikasiga ega emas. Ular muayyan sintaktik vazifa bajaradi. 2. Kelishiklar o'z semantikasiga ega. Kelishiklarning o'z semantikasiga ega bo'lishini ikki jihatdan farqlash mumkin: 1. Falsafiy jihat: har qanday borliq – har qanday til birligi kabi kelishiklarning ham mavjud bo'lishi ularning mohiyatan ziddiyatli

¹ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 260.



ikkilangan bo'lishini talab qiladi. Sintaktik jihat ushbu ziddiyatning bir qutbi (uning mavjudligi hech kimda shubha tug'dirmaydi) bo'lsa, ikkinchi qutb (uning borligi biroz shubhalibroq tuyulsa ham) aynan semantikadir. 2. Lisoniy jihat: kelishiklarga mohiyatan xos bo'lgan ziddiyatli jihatlar har birining realizatsiyasi uchun qulay lisoniy sharoitlar mavjud. Sintaktik jihatning yorqin realizatsiyasi uchun bunday imkoniyat ancha keng bo'lsa, semantik jihat uchun bu bir xil imkoniyat chegaralangandir. So'zning sintaktik vazifa o'zgarmagan holda turli kelishiklarni qabul qila olish o'rinlari ana shu xil (semantik jihatning yorqinlashuvi) imkoniyatni yuzaga keltiradi"².

Kelishik kategoriyasining sistem tadqiqi borasida maxsus tadqiqot olib borgan Z.Qodirovning ko'rsatishicha, "o'zbek tilidagi mavjud oltita kelishik o'zaro bir-biri bilan muayyan sharoitda, kuchsiz pozitsiyada funktsional-semantik neytrallashadi"³.

Z.Qodirov o'z ishida kelishik ma'nolarining muayyan pozitsiyada funktsional-semantik neytrallashish shartlari va neytrallashishning semantik darajasini aniqlashga harakat qiladi. Olim kelishik sistemasi elementlarining o'zaro funktsional-semantik neytralizatsiyasini distributsiya metodi asosida qiyoslaydi⁴. Muallif kelishik paradigmasi a'zolari zidlanishining mo'tadillashuvi xususida fikr yuritib, bosh kelishikning jo'nalish, o'rin, chiqish kelishiklari bilan kuchsiz pozitsiyada funktsional-semantik neytrallashishini, bu neytrallashuvning semantik darajasi distributsiyada ko'rinishini ta'kidlaydi⁵. Ma'lumki, Yu.Stepanov Amerika strukturalistlari tomonidan distributsiyaning uch tipi farqlanganini ta'kidlaydi: 1. Qo'shimcha distributsiya. 2. Kontrast distributsiya. 3. Erkin distributsiya⁶. Qo'shimcha distributsiyada kelishiklar ma'lum bir mazmuniy ma'noga ega bo'lmaydi. Misol uchun, *institutga kelmoq//institutdan kelmoq*. "*Institutga kelmoq*" birikmasida jo'nalish kelishigi orqali ifodalangan ma'no "xarakatning oxirgi nuqtasi"ni, "*Institutdan kelmoq*" birikmasida chiqish kelishigi bilan ifodalanib boshlanish nuqtasi qaerdan boshlanganligi ko'rsatib berilgan.

Kontrast distributsiyada zidlanayotgan ikki kelishiklar o'rtasida grammatik ma'noda qisman farq seziladi. Masalan, *suvni ichmoq//suvdan ichmoq*. Ushbu


² Шахабитдинова Ш.Х. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 19.

³ Қодиров З.М. Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқи. Ўқув қўлланма. 1-қисм.— Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – Б. 58.

⁴ Қодиров З.М. Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқ этиш (келишик категорияси): Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. –28 б.; Қодиров З.М. Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқи. Ўқув қўлланма. 1-қисм. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. –102 б.

⁵ Қодиров З.М. Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқ этиш (келишик категорияси): Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – Б. 19.

⁶ Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. – М.: Просвещение, 1975. –С. 232.





misollar yordamida ikki xil tushum va chiqish kelishiklari o'zaro kontekstda butun-qism ma'nosiga ko'ra farqlangan. Taxlil qiladigan bo'lsak, *suvni ichmoq* – xamma suvni ichish nazarda tutilgan// *suvdan ichmoq* – suvning bir qismini ichish nazarda tutilgan (hammasini emas).

Erkin distributsiyada kontekstda kelishiklar orqali anglanayotgan birliklarda semantik jixatdan xech qanday farqlanishlar mavjud bo'lmaydi. Masalan, *kinoteatrda ko'rdi//kinoteatrdan ko'rdi*. Ushbu gapda shu narsa anglashilyaptiki, ikki turlicha ma'no ifodalovchi kelishiklar erkin distributsiya xolatida bir – biri bilan erkin almasha oladi shuning uchun mazmun jixatidan mo'tadillashish xodisasi ro'y bergan. Umuman olganda, yuqoridagi uchta distributsiya turlaridan qo'shimcha distributsiyada zidlanish mavjud bo'ladi, lekin mo'tadillashish ro'y bermaydi. Kontrast distributsiyada esa zidlanish mavjud bo'lib, mo'tadillashish pastroq bo'ladi. Va oxirgi erkin distributsiyada mo'tadillashish xodisasi juda keng yoritiladi va turlicha ma'no anglatuvchi kelishiklar matn kontekstda bir – biri bilan erkin almasha oladi.

Professor S.Karimov kelishik qo'shimchalarining badiiy uslubga xos ko'rinishlarini ularning turlari bo'yicha guruxlaydi. "Qaratqich kelishigining umumxalq tilida o'nlab shakllari mavjudligi ilmiy manbalarda qayd qilingan. Ularning BUda (badiiy uslubda – D.N.) faol bo'lganlari quyidagilar: *-(i)m: Axir, hayajonlar o'zligim manim, Mayli qalbingga ham ko'chsin hayajon* (K.Bahromova); *-n: Inisin qo'lida goh pichoq ko'rib dong qotgan* (H.Xudoyberdieva)"⁷. Yoki: *"Tushum kelishigi -(i)n: Erka malak achchig'lanmam senga. Uchirsang-da ko'kka yurak kulin* (Fitrat). Bu shaklda qo'llanish she'riyatda nihoyatda faol. CHunki uning ishlatilishi so'zdagi bo'g'inlar soniga ta'sir ko'rsatadi, ma'lum darajada adabiy asar pafosini ham o'zgartiradi, unga ko'tarinkilik, ulug'vorlik va ba'zan balandparvoz ruh bag'ishlaydi"⁸. Ta'kidlab o'tilganidek, kelishik qo'shimchalaridan ko'pchiligining bir necha variantlarga ega bo'lishi, ayrim ko'makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishishi ularning uslubiy chegaralanishlarini keltirib chiqaradi⁹.

O'zbek tilida kelishiklar orasida zidlanishlar mavjudligi ular bilan qo'llangan gaplarning mo'tadillashuviga olib keladi.

Soy bo'yida turgan bo'sh mis ko'zani yomg'ir tomchilari chertib-chertib qo'yadi va Robiya ko'zaga qarab suvga kelganini esladi va uni to'ldirib, uylari tomon ko'tarib ketdi. (Pirimqul Qodirov, Yulduzli tunlar). Bu gapda berilgan *ko'zani* so'zi tushum kelishigida belgili qo'llangan va gapda ma'noviy paradigmani saqlagan

⁷ Karimov S. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б. 96.

⁸ Karimov S. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б. 96.

⁹ Karimov S. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б. 96.





xolatda jo'naligish kelishigi bilan erkin almasha oladi. *Soy bo'yida turgan bo'sh mis ko'zaga yomg'ir tomchilari chertib-chertib qo'yadi va Robiya ko'zaga qarab suvga kelganini esladi va uni to'ldirib, uylari tomon ko'tarib ketdi.* Har ikkala gap xam mazmunun teng bo'lib, tushum kelishik (*ko'zani*), jo'nalish kelishigi (*ko'zaga*) ma'nolari o'rtasidagi zidlanish belgilari yo'qolishi natijasida mo'tadillashuv xodisasi yuz bergan.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, oppozitsiya xodisalari tilshunoslikning deyarli barcha sathlarida kuzatiladi. Lekin morfologik ziddiyatlar kuzatilishi faqatgini ma'lum tor doiralarda yoritib berilgan. Ziddiyatlarni vujudga kelishida distributsiyalarning o'rne beqiyos. Erkin distributsiyada kontekstda kelishiklar orqali anglanayotgan birliklarda semantik jixatdan xech qanday farqlanishlar mavjud bo'lmaydi. Masalan, *kinoteatrda ko'rdi//kinoteatrdan ko'rdi.* Ushbu gapda shu narsa anglashilyaptiki, ikki turlicha ma'no ifodalovchi kelishiklar erkin distributsiya xolatida bir – biri bilan erkin almasha oladi shuning uchun mazmun jixatidan mo'tadillashish xodisasi ro'y bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nabieva Diloromxon "O'zbek tili satxlarda umumiylik, xususiy dialektikasini namoyishi"
2. Miraziz Mirtojiev. "turkiy tub so'zlar"
3. Nurmonov A.A "O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi"
4. Abduazizov. A.A. "English phonetics" (theoretical course) T., 2007
5. Аракин В. Д. «Сравнительная типология английского и русского языков». М.,
6. Зимняя И. А. Психологическая характеристика слушания и говорения как видов речевой деятельности. - «Иностранные языки в школе
7. Загвязинский В.И. Методология и методика дидактических исследований.- М: Педагогика,

